# IV. INVESTITSIYA VA QURILISH ISHLARI

Joriy davrda 4 026,3 mlrd so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘sish sur‘ati 2020- yilning mos davriga nisbatan 98,6 foizni taskil etdi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 489,4 mlrd. so‘m yoki jami investisiyalar hajmining 12,1 foizi va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 124,1 % o‘zlashtirildi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 3 537,0 mlrd. so‘m yoki jami investisiyalar hajmining 87,9 foizi va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 95,8 % o‘zlashtirildi.



**Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar**
*(2021- yil yanvar-iyun)*

| | mlrd. so‘m | o‘sish sur’ati foiz, % | hajmga nisbatan % da |
|---|---|---|---|
| **Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar** | **4 026,3** | **98,6** | **100,0** |
| **Markazlashgan investitsiyalar:** | **489,3** | **124,1** | **12,1** |
| Byudjet mablag‘idan | 264,3 | 162,7 | 6,6 |
| Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi | 40,6 | - | 1,0 |
| O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo‘lgan chet el kreditlari | 98,6 | 54,8 | 2,4 |
| Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi | 85,8 | 165,0 | 2,1 |
| **Markazlashmagan investitsiyalar:** | **3 537,0** | **95,8** | **87,9** |
| Korxona o‘z mablag‘lari | 1 122,2 | 94,3 | 28,0 |
| aholi mablag‘lari | 645,8 | 110,5 | 16,0 |
| to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar | 1 486,4 | 97,4 | 36,9 |
| tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari | 282,6 | 73,1 | 7,0 |

**Markazlashgan investitsiyalar manbalari bo‘yicha ulushi,** *% da*
*(2021- yil yanvar-iyun)*



**Markazlashmagan investitsiyalar manbalari bo‘yicha ulushi,** *% da*

*(2021- yil yanvar-iyun)*




**Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**

*(jami hajmdagi ulushi, % da)*



Asosiy kapitalga investitsiyalarning eng yuqori ko‘rsatkich to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar mablag‘i hisobiga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 92,9 foizni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar**

| Shahar va tumanlar | Jami | | shu jumladan: xorijiy investitsiya va kreditlar | |
|---|---|---|---|---|
| | mlrd. so‘m | o‘sish sur’ati, % | mlrd. so‘m | o‘sish sur’ati, % |
| | | | | |
| ➢ **Viloyat bo‘yicha:** | **4 026,3** | **98,6** | **1 585,0** | **92,9** |
| **shaharlar:** | | | | |
| ➢ Andijon | 1 234,2 | 118,6 | 404,4 | 115,6 |
| ➢ Xonobod | 43,6 | 48,8 | 7,1 | 12,9 |
| **tumanlar:** | | | | |
| ➢ Oltinko‘l | 130,0 | 47,5 | 49,3 | 77,1 |
| ➢ Andijon | 341,8 | 132,8 | 127,1 | 2,1m |
| ➢ Baliqchi | 92,6 | 166,4 | 42,2 | 5,3m |
| ➢ Bo‘ston | 46,4 | 79,2 | 21,3 | 49,5 |
| ➢ Buloqboshi | 98,5 | 57,9 | 29,2 | 33,9 |
| ➢ Jalaquduq | 202,2 | 109,5 | 22,8 | 128,8 |
| ➢ Izboskan | 112,8 | 80,5 | 21,4 | 51,5 |
| ➢ Ulug‘nor | 91,3 | 133,6 | 14,1 | 28,4 |
| ➢ Qo‘rg‘ontepa | 323,5 | 109,0 | 115,6 | 117,0 |
| ➢ Asaka | 561,1 | 135,7 | 434,5 | 166,0 |
| ➢ Marhamat | 151,9 | 105,6 | 50,9 | 116,4 |
| ➢ Shahrixon | 113,2 | 97,8 | 41,5 | 141,3 |
| ➢ Paxtaobod | 145,5 | 64,6 | 17,9 | 15,5 |
| ➢ Xo‘jaobod | 337,9 | 61,3 | 185,7 | 48,8 |

### Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘sish sur’atlari, *% da*




### Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, *% da*



## Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

| | Jami | Shu jumladan, mulkchilik shakllari bo‘yicha | |
|---|---|---|---|
| | | davlat | nodavlat |
| | | | |
| **Jami,** *mlrd. so‘m* | **4 026,3** | **521,2** | **3 505,1** |
| *shu jumladan*:<br>umumiy hajmga nisbatan, *% da* | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| *mashina,uskunalar,transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari* | 58,4 | 70,2 | 32,2 |
| qurilish-montaj ishlari | 37,1 | 25,4 | 63,3 |
| boshqa xarajatlar | 4,5 | 4,4 | 4,5 |

## Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, *mlrd. so‘m*



**Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi,** *% da*




Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida Andijon viloyati bo‘yicha mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari ulushi- 58,4 %, qurilish-montaj ishlari- 37,1 % hamda boshqa harajatlar- 4,5 % ni tashkil etdi.

## **Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar,** *mlrd. so‘m*




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zlashtirilishi: qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 406,9 mlrd. so‘m (jami investitsiylar hajmidagi ulushi 10,1 %), tog‘-kon sanoatida 46,8 mlrd. so‘m (1,2 %), qayta ishlash sanoati jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 1 635,6 mlrd. so‘m (40,6 %), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash 207,2 mlrd. so‘m (5,1 %), qurilish sohasida 160,2 mlrd. so‘m (4,0 %), ulgurji va chakana savdo sohasida 188,9 mlrd. so‘m (4,7 %), tashish va saqlash 105,7 mlrd. so‘m (2,6 %) hamda boshqa faoliyat turlari bo‘yicha 1 275,0 mlrd. so‘m (31,7 %) tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi**
*(umumiy hajmga nisbatan foiz %da)*




2021- yil yanvar-iyunida umumiy maydoni 479,4 ming kv.m. (2020- yilning mos davriga nisbatan 133,7 %) bo’lgan 2 551 xonadonga ega bo’lgan turar - joylar, ulardan 301,6 ming kv.m. (119,4 %) bo’lgan 1 696 ta xonadonlar qishloq joylarda ishga tushirildi.

## Bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur’atlari
*(2021- yil yanvar-iyun oylari)*

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Andijon viloyatida jami 2 423,4 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur‘ati 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 106,7 % ni tashkil etdi.




## Qurilish ishlari hajmining tarkibi va ulushi
*(2021- yil yanvar-iyun oylari)*




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.




***Ma’lumot uchun:*** *qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 85,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish surati 78,1 % ni, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 3,5 % ni tashkil etdi.



**Bajarilgan qurilish ishlari hajmida yirik tashkilotlarning ulushi va o‘sish sur’ati,** *% da*




***Ma’lumot uchun:*** *yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Andijon shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 36,0 foizii yoki 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 106,9 %) ga to‘g‘ri keldi.*

## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, *% da*




Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 71,0 foizi to‘g‘ri kelib, 2020- yil yanvar-iyun oylari ko‘rsatkichiga nisbatan 2,3 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil mos davriga nisbatan 104,4 % ni tashkil etgan holda 1 719,2 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to‘g’ri kelgan qurilish ishlari ulushi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 25,5 % ni tashkil etdi yoki 618,5 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 121,0 % ni tashkil etdi.*



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi

**ulushi % da, mlrd. so'm**




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 76,0 mlrd. so'm yoki 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 104,4 % qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 2 347,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 3,5 марта tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, *% da*





## Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari
*(2021- yil yanvar-iyun oylari)*

| | Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘m | Davlat mulki | | Nodavlat mulk* | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mlrd. so‘m | ulushi, % da | mlrd. so‘m | ulushi, % da |
| **Viloyat bo‘yicha:** | **2 423,4** | **76,0** | **3,1** | **2 347,4** | **96,9** |
| Andijon sh. | 871,3 | 2,4 | 0,3 | 868,9 | 99,7 |
| Xonobod sh. | 68,0 | - | - | 68,0 | 100,0 |
| tumanlar : | | | | | |
| Oltinko‘l | 119,3 | - | - | 119,3 | 100,0 |
| Andijon | 236,9 | 9,6 | 4,1 | 227,2 | 95,9 |
| Baliqchi | 69,3 | 3,4 | 4,9 | 65,9 | 95,1 |
| Bo‘ston | 108,1 | - | - | 108,1 | 100,0 |
| Buloqboshi | 37,4 | 3,4 | 9,2 | 34,0 | 90,8 |
| Jalaquduq | 94,6 | 10,1 | 10,7 | 84,5 | 89,3 |
| Izboskan | 97,0 | 4,2 | 4,3 | 92,8 | 95,7 |
| Ulug‘nor | 49,9 | 5,9 | 11,9 | 44,0 | 88,1 |
| Qo‘rg‘ontepa | 73,1 | 5,7 | 7,8 | 67,4 | 92,2 |
| Asaka | 107,8 | 7,7 | 7,2 | 100,1 | 92,8 |
| Marhamat | 100,3 | 11,9 | 11,9 | 88,4 | 88,1 |
| Shahrixon | 176,5 | 5,4 | 3,1 | 171,1 | 96,9 |
| Paxtaobod | 135,3 | 2,6 | 1,9 | 132,7 | 98,1 |
| Xo‘jaobod | 78,7 | 3,6 | 4,6 | 75,1 | 95,4 |

* Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda

## Andijon viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari, *% da*

**2020- yil yanvar-iyun**

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurilishi | Bino va inshootlarni qurilishi |
|---|---|---|
| 9,2 | 15,3 | 75,5 |

**2021- yil yanvar-iyun**

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurilishi | Bino va inshootlarni qurilishi |
|---|---|---|
| 13,0 | 12,6 | 73,7 |

***Ma’lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*



## Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 2,0 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylari ko‘rsatkichiga nisbatan 0,1 % punktga ka‘maydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-iyun oylari ko‘rsatkichiga nisbatan 3,5 % punktga ka‘mayib, 64,2 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yil yanvar - iyun oylari ko‘rsatkichiga nisbatan 3,6 % punktga ko‘payib, 33,8 % ni tashkil etdi.



## Fuqarolik obektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari



Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 9,7 % ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 5,3 % punktga ko‘paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 90,2 % (5,3 % punktga ka‘maydi).

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yil yanvar - iyun oylari ko‘rsatkichiga nisbatan 0,1 % punktga ko‘payib, 0,1 % ni tashkil etdi.





# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 13,6 % punktga kamaydi va 6,1 % ni tashkil etdi.

Qolgan 93,9 foizi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 13,6 % punktga ko‘paydi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari
*(2021- yil yanvar-iyun oylarida)*

**Eng yuqori hajm** ***(mlrd. so'm)***

1. **Andijon sh.** 871,3
2. **Andijon** 236,9
3. **Shahrixon** 176,5

**Kichik hajm** *(mlrd. so'm)*

- **Baliqchi** 69,3
- **Buloqboshi** 37,4
- **Ulug'nor** 49,9